



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 17-iyul, № 145 (9040)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligiga

O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN MUHIM TASHABBUSLAR

O'zbekistonning xalqaro sahnadagi mavqeini yanada mustahkamlaydi

San'at va madaniyat dunyo xalqlarini ezgulik yo'lida birlashtiradi

Prezidentimizning “O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'tiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarori mamlakatimiz aholisini ezigu maqsad ostida birlashtirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” shiori esa elimizning har bir vakiliga qarata yo'llangan xitob bo'lib, yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi hamjihatligimizga yangi kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Darhaqiqat, bu borada sakkiz yil oldin boshlagan keng ko'lami islohotlarimiz yurtimizning barcha sohasini qamrab oldi. Xalqimiz manfaatlarini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har qanday yuksalishning asosiy g'oyasi etib belgilandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda muhrlanganidek, O'zbekiston inson qadri, uning huquq va manfaatlarini hamma narsadan ustun turadigan ijtimoiy davlatga aylandi. Unga ko'ra har bir inson keng imkoniyatlardan samarali foydalanib, o'z salohiyatini to'laigicha amalga oshirishga qobiliyatli bo'lib bormoqda.

Shu o'rinda ta'lim sohasida ro'yobga chiqarilgan islohotlarga to'xtalib o'tish joiz. Bugungi kunga kelib maktabgacha ta'lim tizimida qamrov 2017-yildagi 27 foizdan 77 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga yetgani, yurtimizda ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar va Prezident maktablari kabi yangi modeldagi bilim maskanlari tizimi yaratilgani e'tiborga molik.

Yurtimizda 400 ga yaqin bolalar musiqa va san'at maktablari barpo etildi. Ularning aksariyat qismi yangidan qurib bitkazilgan bo'lsa, qolgani butunlay rekonstruksiya qilinib, zamonaviy ta'lim berish standartlariga moslashtirildi. Yosh avlodning musiqa ta'lim olishlarini ta'minlash, ushbu tizimni isloh etishda o'quv maskanlarining moddiy-texnika bazasi, musiqiy cholg'ular yangilanib, o'quv adabiyotlarining mutlaqo yangi avlodi yaratildi.

Respublika bo'yicha bolalar musiqa va san'at maktablarida ta'lim beradigan o'qituvchilar yetishmovchiligini bartaraf etish maqsadida O'zbekiston davlat konservatoriyasi hamda hududlardagi pedagogikaga mo'ljallangan oliy ta'lim muassasalarida “musiqiy ta'lim” yo'nalishida kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda ushbu yo'nalishda tahsil olayotgan kadrlar oliy ta'lim muassasalarini uch yilda bitirib, amaliyotga kirishmoqda.

Musiqa san'ati bo'yicha o'qib, professional mutaxassis bo'lishga intilgan yoshlarning soni tobora oshib borayotganini hisobga olib, Nukus shahrida O'zbekiston davlat konservatoriyasining filiali barpo etildi. Shuningdek, respublika bo'yicha vokal san'ati aynan qoraqalpoq yoshlari o'rtasida kuzatilayotganini nazarda tutib Nukusda Yosh opera xonandalari va baxshilar maktabi ochildi. Bugungi kunda mana shu ikkita ta'lim dargohida zamonaviy o'quv amaliyoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda samarali natijalar kuzatilmogda.

Jahon tajribasidan ayonki, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida nafaqat ichki xazinalar, balki xalqaro iqtisodiy tashkilotlar resurslaridan foydalanish ham muhim omil sanaladi. Biroq bugun rivojlangan davlatlar va xalqaro biznes tuzilmalari o'z sarmoyasini investitsiyaviy jozibador, qulay sarmoyaviy muhit yaratilgan mamlakatlarga joylashtirishga intilmoqda. Shu bois yurtimizga xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar ko'rilayotir. Ta'bir joiz bo'lsa, yirik xalqaro tashkilotlar, yuqori salohiyatli investorlar bilan hamkorlikni mustahkamlash O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev shu yil 4 iyul kuni Ozarbayjonning Xonkendi shahrida bo'lib o'tgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitida investitsiyaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, yanada shaffof va jozibador investitsiya muhitini shakllantirishga qaratilgan tashabbusni ilgari surdi. Bu esa sammitda ishtirok etgan qator davlatlar va mintaqaviy tashkilotlar delegatsiyalari rahbarlari tomonidan katta mamnuniyat bilan qabul qilingani e'tiborga molikdir.

Katta imkoniyat, yirik bozor

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT)ga 1985-yilda Turkiya, Eron va Pokiston tomonidan asos solingan bo'lib, O'zbekiston unga 1992-yili a'zo bo'lib kirgan.

Aytish joizki, bugungi kunda tashkilotga a'zo davlatlarning umumiy maydoni 8 million kvadrat kilometr masofani qamrab olgan. Bu – Osiyo qit'asining 20 foizi, jahonning esa 6 foiz qismini tashkil etadi degani. Uning hududi, bir tomondan, Hind okeani va O'rta yer dengizi, ikkinchi tomondan, qit'alararo quruqlik va dengiz savdo yo'llari o'rtasida joylashgan dunyoning eng strategik ahamiyatga ega mintaqalaridan biri hisoblanadi. IHT davlatlari bir-birini to'ldiradigan ulkan tabiiy, intellektual, sanoat, agrar va texnologik resurslarga ega. Ishtirokchi davlatlar o'zaro integratsiyani chuqurlashtirish va foydalanilmagan salohiyatni ishga tushirishi zarurligini, hamkorlikni mustahkamlashdan keladigan umumiy afzalliklarni tobora chuqurroq anglab yetmoqda.

Darhaqiqat, jahon bozorlaridagi bugungi noaniqlik va global ta'minot zanjirlarining beqarorlashuvi sharoitida mamlakatlar

o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga intilayotgani mantiqan to'g'ri qarordir. Binobarin, IHT mintaqasi jamiyat va bozor iste'moli ko'rsatkichlari nuqtayi nazaridan umumiy 500 mln. nafardan ko'proq aholiga ega yirik bozor hamda katta imkoniyat makoni hisoblanadi. Buni tasavvur qilish uchun mazkur davlatlar o'rtasidagi o'zaro tovar aylanmasi hajmi 600 mlrd. dollarni tashkil etishini keltirish kifoya, nazarimizda. Ammo qo'shma investitsiya kiritish uchun qulay sharoit mavjudligiga qaramay ushbu yo'nalish yaqin paytlargacha IHTning eng zaif tomoni bo'lib keldi. Nega? Bu haqda so'z yuritilganda, tashkilotga a'zo ayrim davlatlarda ichki muammolarning yuzaga kelganligi, siyosiy keskinlik va uning ta'sirida paydo bo'lgan noqulay muhit o'zaro sarmoyaviy aloqalarga g'ov bo'lganini alohida ta'kidlash joiz.

Unutmaslik kerakki, iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash faqat ushbu tashkilotning imkoniyatlari va manbalaridan to'laonli foydalanish bilan ro'yobga chiqadi. Buning uchun mintaqada umumiy xavfsizlik va barqarorlikni hamda o'zaro jipslikni ta'minlash zaruriy shart hisoblanadi.



Senat qo'mitasida

Maqsad – davlat ishtirokini qisqartirish hisobiga xususiy sektorni rivojlantirish

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi majlisida Davlat aktivlarini boshqarish agentligining iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish hamda xususiy lashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti dastlabki tarzda eshittildi.

Muhokama davomida so'nggi yillarda iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish, davlat mulkini xususiy lashtirish orqali xususiy sektor ulushini oshirish va tadbirkorlikni

rivojlantirish, samarasiz ishlayotgan hamda istiqbolsiz korxonalarni tugatish bo'yicha tizimli islohotlar olib borilayotgani ta'kidlandi. Xususan, 2021-yildan buyon ustav fondida davlat

ulushi bo'lgan 500 dan ziyod xo'jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalari, 3,4 mingga yaqin ko'chmas mulk obyektlari xususiy lashtirilgan, 1 027 ta korxona tugatilgan va 964 tasi qayta tashkil etilgan.

Shuningdek, 2021 – 2024-yillarda davlat aktivlarini xususiy lashtirish natijasida 35,8 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratilgan.



Qonunchilik palatasida

Rasmiy statistika:

FOYDALANUVCHILAR UCHUN QULAY IMKONIYATLAR

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo'mitasi tomonidan “Rasmiy statistika sohasida davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan seminar o'tkazildi.

Unda Qonunchilik palatasi deputatlari, Milliy statistika qo'mitasi vakillari, ekspertlar hamda OAV xodimlari ishtirok etdi. Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda statistika

ma'lumotlari sifatini yanada yaxshilash, statistika ko'rsatkichlarining to'laonli ma'lumot bazalarini yaratish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik sohalarda statistikaning zamonaviy usullarini joriy etish borasida keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



O'rganish

Investitsiya salohiyati hamda eksport masalalarida ochiq muloqot

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi Alisher A'zamxo'jayev Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanida o'rganish ishlarini olib bordi.

Xususan, senator tuman hokimligida mahalliy Kengashlar va idoralar mas'ullari bilan uchrashuv o'tkazdi. Unda Prezident tashabbusi bilan yetakchi tumanlardan biri sifatida belgilangan Sirdaryo tumanida iqtisodiyotni rivojlantirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, shuningdek, investitsiya, turizm va tashqi iqtisodiy faoliyat sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni samarali tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

O'rganish davomida “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi hamda Ilg'or va Oq yo'l mahallalari “mahalla yettiligi” faoliyati bilan ham yaqindan tanishildi. Saylovchilar bilan uchrashuv va ochiq muloqotlar tashkil etildi.

Mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, yoshlar yetakchilari va boshqa mas'ullar ishtirokida aholini tashvishga solayotgan muammolar aniqlanib, ularga

tez hamda samarali yechim topish, mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash masalalari ko'rib chiqildi.


Shuningdek, tumandagi yirik sanoat korxonalari faoliyati ham e'tibordan chetda qolmadi. Markaziy Osiyoda gazoblok ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi “BEGZODSHER” MCHJ hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “PENG SHENG” Xitoy – O'zbekiston qo'shma korxonasida mahalliy bozor va eksport uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar ko'zdan kechirildi.

O'z navbatida, senator mahalliy va xorijiy investorlar ishtirokida tumanning investitsiya salohiyati, amalga oshirilayotgan loyihalar hamda eksport masalalariga bag'ishlangan ochiq muloqot ham o'tkazdi.


“Xalq so'zi”.

TABARRUK TASHRIFLARNING TOTLI MEVALARI

...Mana endi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Toshkent viloyatiga qilgan bitta tashrifi necha minglab ko'ngillarga sevinch, baxt, umid, ishonch, go'zallik, yur bag'ishlaganini chamalab ko'ring. So'ngra uning yoniga yana o'n tashrifni qo'shing. O'n tashrif – o'n to'lg'anish, o'n uyg'onish, o'n evrilish. Har tashrifdan so'ng hech nima yo'q joylarda azamat korxonalar qad ko'tarayotgani, chaqirtilgan, ajriq bosgan yerlar gullarga qad millib borayotgani, yuz-yuzlab oilalar uy-joyli bo'layotgani-yu, qayerga bosh urishini bilmay yurgan minglab yoshlarning ish bilan ta'minlanganini hisoblab ko'rsangiz, Prezident tashriflarining mazmun-mohiyatini yanada teranroq his qilasiz.



Юртимиз бўйлаб...



NUR-AFSHON



Maqsad – davlat ishtirokini qisqartirish hisobiga xususiy sektorni rivojlantirish

2024-yilning noyabr oyida ilk bor “Xalqchil IPO” dasturi doirasida Respublika tovar-xomashyo birjasining 3 milliondan ortiq aksiyalari aholiga sotilib, qariyb 11 ming kishi aksiyadorga aylangan.

Hududlarda davlat aktivlaridan samarali foydalanib, mahalliy byudjetga tushumni koʻpaytirish boʻyicha koʻrilgan choralar ham oʻz samarasini bermoqda.

Jumladan, 2021 – 2024-yillarda boʻsh turgan davlat koʻchmas mulki obyektlarini ijaraga berish hisobiga qariyb 1,4 trln. soʻm miqdorida tushumlar taʼminlanib, ularning 245,1 mlrd. soʻmi mahalliy byudjetlarga yoʻnaltirilgan.

Tadbirkorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan izchil chora-tadbirlar samarasi oʻlaroq xususiy sektorga 50 dan ortiq davlat xizmatlari koʻrsatilgan.

Garchi hududlarda davlat aktivlaridan samarali foydalanib, iqtisodiyotga sezilarli hissa qoʻshilayotgan boʻlsa-da, sohada ayrim muammolar ham yoʻq emasligi muhokama jarayonida senatorlar tomonidan qayd etildi. Xususan, davlat ulushi 50 foizdan yuqori boʻlgan korxonalarning yarmi zarar koʻrib ishlayotgani, faoliyatsiz va tugatish jarayonida ekanligi taʼkidlandi. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari hamda poytaxtimiz hissasiga toʻgʻri keladi.

Senatorlar masʼul idoralarga davlat mulkini xususiylashtirishda boshlangʻich narxni pasaytirish mexanizmlarini oʻz vaqtida qoʻllamaslik, sotib olingan davlat aktivlarida investitsiya majburiyatlarini bajarmaslik kabi holatlarning oldini olish boʻyicha oʻz taklif va tavsiyalarini berdi.

Majlis yakunida koʻrilgan masala yuzasidan qoʻmitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Hech bir fuqaro oʻz muammosi bilan yolgʻiz qolmaydi

Kecha Oliy Majlis Senati qabulxonasida Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov fuqarolar murojaatlarini koʻrib chiqdi.

Jumladan, Toshkent viloyatining Chinoz tumanida istiqomat qiluvchi fuqaro ish bilan taʼminlash masalasida yordam soʻragan boʻlsa, Toshkent shahrining Chilonzor tumanida yashovchi fuqaro O. Javdatov esa odam savdosiga qarshi kurashish bilan bogʻliq muammoni koʻtargan.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatida yashovchi B. Umarov, poytaxtda istiqomat qiluvchi M. Rahmonova va A. Berkinova sud qarorining ijrosi bilan bogʻliq masalada yordam soʻrab kelgan.

Qashqadaryo viloyatidan tashrif buyurgan D. Doʻltayeva, Andijon viloyatining Andijon tumanidan kelgan S. Abubakirova va M. Moʻydinova moddiy yordam koʻrsatish borasidagi muammolari yuzasidan murojaat qildi.

Senator murojaatlarni diqqat bilan eshitib, fuqarolarga huquqiy tushuntirishlar berdi hamda tilga olingan muammolarga yechim topish maqsadida masʼul tashkilotlarga tegishli topshiriqlar yuklandi.

“Xalq soʻzi”.

ZAMONAVIY VA XAVFSIZ SHAROIT – SIFATLI TAʼLIMGA POYDEVOR

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qoʻmitasida doimiy asosda ishlovchi senator Malika Qodirxonova Toshkent viloyatidagi umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida aniqlangan ayrim muammoli holatlar yuzasidan Toshkent viloyati hokimligiga senator soʻrovi yubordi.

Senator soʻrovi

Unda taʼkidlanganidek, mamlakatimizda umumiy oʻrta taʼlim tizimini rivojlantirish, oʻquvchilar uchun zamonaviy va xavfsiz sharoitlar yaratish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramay, ayrim hududlarda maktablarning moddiy-texnik holati va infratuzilmasi bilan bogʻliq yechimni kutayotgan masalalar mavjud.

Xususan, Nurafshon shahridagi “Oppoq” mahalla fuqarolar yigʻinida joylashgan 10-umumiy oʻrta taʼlim maktabi va aholi yashash hududi oraligʻi devor bilan oʻralmagan. Maktabning aholi

bilan tutashgan 900 metrlik chegara qismi ochiq boʻlib, bu maktab hududida ekilgan daraxt va manzarali koʻchatlarga zarar yetkazilishiga sabab boʻlmoqda. Prezidentning 2022-yil 12-maydagi tegishli qaroriga muvofiq umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining xavfsizligini taʼminlash maqsadida ularning hududlarini oʻrash va boshqa zarur choralarni koʻrish viloyat hokimliklari zimmasiga yuklatilgan.

Bundan tashqari, Zangiota tumanidagi Ibrat mahallasida joylashgan 21-umumiy oʻrta taʼlim maktabida oʻquvchilar uchun sport zali yoʻq. Avvallari mavjud

boʻlgan ushbu maktabning sport zali Zangiota tumani hokimining 2017-yil 26-yanvardagi qaroriga asosan buzilgan boʻlib, yetti yildan beri yangi sport zali qurib berilmagan. Natijada oʻquvchilarning jismoniy tarbiya mashgʻulotlari toʻliq oʻtkazilmayapti.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, senator tomonidan “Parlament nazorati toʻgʻrisida”gi Qonunning 15-moddasiga asosan Nurafshon shahridagi 10-umumtaʼlim maktabi atrofini oʻrash orqali oʻquvchilarning xavfsizligini taʼminlash hamda Zangiota tumanidagi 21-maktabda jismoniy tarbiya darslari uchun zarur sport inshootini barpo etish boʻyicha koʻrilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan mutasaddi tashkilotlardan asoslantirilgan tushuntirish berish soʻralgan.

“Xalq soʻzi”.

YANGI OʻZBEKISTON RAVNAQINING SIYOSIY TAYANCHI VA MAʼNAVIY ASOSI

1991-yil 31-avgust – oʻz taqdirini oʻzi belgilashni tanlagan mard va olijanob xalqimizning ulkan yutugʻi sifatida milliy tariximizga zarhalar ham muhrlangan sana. Bu kun mustaqillikka erishgan Oʻzbekiston uchun faqat siyosiy emas, balki maʼnaviy qayta tugʻilish, xalqning haqiqiy suveren subyekt sifatida jahon maydonida munosib oʻrin egallashiga yoʻl ochgan tarixiy burilish nuqtasidir.

Munosabat

Prezident Shavkat Mirziyoyevning davlat mustaqilligining 34 yilligi munosabati bilan qabul qilgan qarorida ayni shu gʻoyalari yana bir bor aniq va ravshan ifoda etildi: “Mustaqillik – Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obroʻ-eʼtiborini yuksaltirishda beqiyos tayanch boʻlib xizmat qilmoqda”.

Soʻnggi sakkiz yilda yangi Oʻzbekistonni barpo etish yoʻlida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar asosida mamlakat ijtimoiy hayotida tom maʼnodagi yuksalish kuzatildi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy oʻsish, balki inson qadriini ulugʻlash, barcha fuqaro uchun teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish orqali xalq farovonligini taʼminlashga qaratilgan. Ayniqsa, taʼlim, sogʻliqni saqlash, uy-joy, yoshlar siyosati, madaniyat va sport kabi sohalarda amalga oshirilgan islohotlar mustaqillik sharofati bilan shakllangan siyosiy-huquqiy zaminning amaldagi natijalaridir.

Mustaqillik bizga ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ustuvor qadriyatiga aylantirish imkonini berdi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlatning “ijtimoiy xarakterga” ega ekanini mustahkamlangan ham bu siyosatning davomiyligini tasdiqlaydi.

Davlat tomonidan kambagʻallikni qisqartirish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qoʻllab-quvvatlash, pensiya va nafaqalarni bosqichma-bosqich oshirish boʻyicha bajarilayotgan ishlar jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, aynan mustaqillik, barcha siyosiy-huquqiy kafolatni oʻzida mujassam etgan holda “Oʻzbekiston – 2030” strategiyamizni amalga oshirish, jamiyatimizda tinchlik, doʻstlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini taʼminlash,

mintaqamizda yaxshi qoʻshnichiilik aloqalarini yanada rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan faol hamkorlik qilish, Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obroʻ-eʼtiborini yuksaltirishda beqiyos tayanch boʻlib xizmat qilmoqda.

Prezident qarorida “Yoshlar – Yangi Oʻzbekiston bunyodkorlari” shiori alohida urgʻu bilan tilga olingan. Bu tasodif emas. Chunki istiqlol davrida oʻsgan avlod bugun yangi taraqqiyot pogʻonalariga yetaklayotgan kuchga aylangan. Yoshlar uchun IT bilimlari, chet tillarni oʻrgatish, tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash, xorijiy universitetlarda taʼlim olish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Prezident tashabbusi bilan dunyoning “TOP – 300” oliyohlarida oʻqiydigan talabalarning davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlanishi bunga yaqqol misoldir.

Qolaversa, mustaqillik tufayli sogʻliqni saqlash tizimida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Zamonaviy klinika va markazlar tashkil etildi, tez tibbiy yordam xizmati, onkologiya va perinatal yordam tizimlari qayta tashkil qilindi. Hatto chekka hududlardagi aholi ham davlat tibbiy xizmatidan foydalanish imkoniyatiga ega boʻlmoqda.

Mustaqillik – bu faqat siyosiy maqom emas, balki millatning erkin nafas olishi, oʻz salohiyatini yuzaga chiqarishi, har bir insonning munosib hayot kechirish huquqini kafolatlaydigan tarixiy neʼmat.

Prezident qarorida belgilab berilgan vazifalar va yoʻnalishlar – mustaqillikning xalqimiz hayotida qanday ulkan ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Endi oldingi kabi emas – endi oʻz yoʻli, oʻz pozitsiyasi, oʻz modeliga ega davlat sifatida yangi Oʻzbekiston istiqlol bayrogʻini yuksak balandliklarga koʻtarmoqda.

Mavluda ADHAMJONOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



Rasmiy statistika:

FOYDALANUVCHILAR UCHUN QULAY IMKONIYATLAR

Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasining tashkil qilinishi rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari boʻyicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtirish jarayonida statistika organlarining mustaqilligi va vakolatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonun hamda rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga tayangan holda milliy statistika tizimining xalqaro tashkilotlarga maʼlumotlar taqdim etib borishi natijasida xalqaro darajada qator yutuqlarga erishildi. Jumladan, Oʻzbekiston ochiq maʼlumotlar boʻyicha xalqaro “Open Data Inventory” reytingida 2024-yil natijalariga koʻra 198 ta mamlakat orasida 12-oʻringa koʻtarilib, Markaziy Osiyoda birinchi oʻrinni saqlab kelmoqda. Shuningdek, Jahon bankingning 2024-yilda eʼlon qilingan “Statistika faoliyati samaradorligi indeksi”da 2023-yil yakunlari boʻyicha Oʻzbekiston 217 mamlakat orasida 62-oʻrinni egalladi.

Seminarda rasmiy statistika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, sohaga oid qonun hujjatlari normalarini oʻzaro muvofiqlashtirish maqsadida rasmiy statistika sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ishlab chiqilgan qayd etildi. Mazkur hujjat Qonunchilik palatasining shu yil 1-iyul kuni boʻlib oʻtgan majlisida birinchi oʻqishda qabul qilingan edi.

Qonun loyihasi bilan qator qonunlarga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilayotgani, belgilanayotgan normalar rasmiy statistika sohasida maʼmuriy islohotlarni samarali amalga oshirish doirasida statistika organlarining faoliyatini takomillashtirish hamda rasmiy statistikadan foydalanuvchilar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgani taʼkidlandi.

– Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi milliy statistika tizimi faoliyatini tartibga solish barobarida rasmiy statistikaning ochiqligi va shaffofligini taʼminlash borasidagi islohotlarning natijadorligiga erishish, foydalanuvchilarning ishonchli, sifati va dolzarb rasmiy statistik maʼlumotlarga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish, mamlakatning xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi, – deydi deputat Navroʻz Yusupov.

Tadbir davomida qonun loyihasi yuzasidan savollar berildi, muhim takliflar ilgari surildi. Ular asosida loyiha matni pishiq-puxta holatga keltirilib, maromiga yetkaziladigan boʻldi.

“Xalq soʻzi”.

MAMLAKAT ERTASI UCHUN PUXTA ZAMIN

Mamlakatimiz aholisining 60 foizini 30 yoshgacha boʻlgan avlod tashkil qiladi. Yaʼni 2025-yil boshidagi maʼlumotga koʻra ularning soni 19 milliondan oshdi. Bu raqam oddiy statistika emas. Bu – ulkan salohiyat, strategik imkoniyat va millat ertasi uchun puxta zamin demak. Shu sabab yoshlar siyosati davlatimizda eng muhim, ustuvor yoʻnalishga aylangan.

Fikr

Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar jarayonida yosh avlod vakillarining faolligini oshirish, ularni davlat boshqaruviga, siyosiy va ijtimoiy hayotga faol jalb etish masalasi doimiy eʼtiborda. Shuning bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamdagi yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ham tahsinga loyiq. Ana shunday tashabbuslardan biri ilm-fan, sport, sanʼat va madaniyat yoʻnalishlarida tashkil etilgan olti oygacha boʻlgan oʻquv kurslaridir. Bu dastur orqali yuzlab, minglab yoshlarga oʻz orzulari sari yana bir qadam tashlash imkonini berilmoqda.

Mazkur dastur “Kambagʻal oilalar reestri”ga kiritilgan 14 dan 30 yoshgacha boʻlgan yigit-qizlar uchun moʻljallangan boʻlib, ular har oyda bazaviy hisoblash miqdorining bir baravarigacha darajada moddiy qoʻllab-quvvatlanadi. Eng muhimi, bu yordam toʻgʻridan-toʻgʻri oʻquv markazlariga yoʻnaltiriladi va yoshlar oʻzlari tanlagan yoʻnalishda bepul taʼlim olish imkoniyatiga ega boʻladi.

Raqaamlar esa buning isboti: ayni paytda 8 mingdan ortiq yoshlar ariza topshirgan boʻlsa, shulardan 6 ming 608 nafari tasdiqlangan, 4 ming 598 nafar yordamdan foydalangan. Bu koʻrsatkichlar har bir yosh uchun ochildan yangi hayot eshigini anglatadi – kimdir aktyorlik sirlarini oʻrganmoqda, kimdir sport bilan shugʻullanmoqda, yana kimdir musiqa yoki dizayn sohasida oʻzini topmoqda. “Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni oʻtash badali” uchun yuborilgan jami arizalar 14 216 ta boʻlib, uning 11 949 tasi tasdiqlangan, 8 555 tasiga yordam koʻrsatilgan. Bunday koʻrsatkichlar koʻzni quvontiradi, albatta.

Bugungi yoshlar – ertangi rahbarlar, siyosatchilar, olimlar, muhandislar, yozuvchilar va fidoyi insonlar. Ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi, jamiyatdagi oʻrni, qarashlari va gʻoyalari, bu – yoshlarga bildirilgan ishonch natijasi, davlatimiz siyosatining mevasi.

Aynan mana shu ishonch Oʻzbekistonning ertangi taraqqiyotini belgilab beradi. Har bir yoshni eshitish, unga ishonch bildirish, yetakchi sifatida shakllantirish jamiyat oldidagi eng katta masʼuliyatdir. Chunki kuchli yoshlar – kuchli jamiyatni barpo etadi. Kuchli jamiyat esa barqaror, taraqqiyotga intilgan, farovon davlatning poydevoridir.

Nodirbek MURODOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi
Yoshlar parlamenti raisi oʻrinbosari.

Sanʼat va madaniyat dunyo xalqlarini ezgulik goʻlida birlashtiradi

Shuningdek, Oʻzbekiston davlat sanʼat va madaniyat institutida taʼlim olishga talabgorlarning yil sayin koʻpayib borayotganini hisobga olib, Fargʻona viloyatida uning mintaqaviy filiali tashkil etildi.

Barchamizga ayonki, raqs sanʼati oʻzbek madaniyatining ajralmas qismi sanaladi. Davlatimiz rahbarining “Raqs sanʼati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida Oʻzbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etildi.

Raqs sanʼatining toʻrtta hududiy maktabini nazarda tutgan holda, Buxoro, Qarshi, Nukus va Urganch shaharlarida akademiya huzurida ixtisoslashtirilgan boshlangʻich raqs sanʼati maktab-internatlari ochildi. Taʼlimning ushbu boʻgʻini Oʻzbekiston raqs sanʼati sohasida madaniy merosga oid yoʻnalishlarni saqlab qolish hamda bu borada yetuk malakali kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Soʻnggi yillarda oʻzbek musiqa madaniyati tizimida milliy merosni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirishga oid yana ikkita oliy taʼlim muassasasiga asos solindi. Bular Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqa sanʼati instituti va Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada sanʼati institutidir. Ikkala oliy taʼlim muassasasi faoliyati ikkita muhim yoʻnalish – maqom va estrada ijrochiligi sanʼatini rivojlantirishga qaratilgan.

Alohida taʼkidlash joiz, bugungi kunga qadar baxshichilik sanʼati ogʻzaki anʼanadagi madaniy meros boʻlib, davlat taʼlim muassasalarida oʻqitilmagan. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan baxshichilik sanʼati oʻzbek xalqining milliy musiqiy nomoddiy merosi oʻlaroq tariximizni tiklash va anglash borasida muhim omil sifatida qayd etildi.

Jahon musiqa madaniyatida estrada sanʼati ham mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. Musiqiy ifodaviylik, yangi badiiy obrazlar, rang-barang ijrochilik uslublari, sahna bezash madaniyati kabi tomosha sanʼatining yangi zamonaviy talablari bugungi

kunda oʻzbek estrada musiqasiga ham oʻz taʼsirini oʻtkazmoqda. Demak, bu borada tizimli ijodiy izlanish, ifodaviylikka erishishning yangi usullarini topish, estrada musiqasining mavjud muammolariga oid keng qamrovli yangi tahliliy tadqiqotlarni oʻtkazish zarurati ayon boʻlmoqda. Shu bois ham estrada sanʼatiga ixtisoslashtirilgan taʼlim yoʻnalishining mustaqil oʻquv muassasasi sifatida faoliyat yuritishi bugungi kunda malakali kadr yetishtirib chiqarishning samarali usuli boʻlib xizmat qiladi.

Taʼlim tizimining sanʼat va madaniyat yoʻnalishida olib borilayotgan bugungi islohotlar oʻzining ijobiy natijasini uzoq kuttirmadi. Bu sohada tahsil olayotgan yoshlarimiz yil sayin jahonning nufuzli xalqaro sahnalarida oʻz ijrolari bilan yuksak darajali mukofotlarga sazovor boʻlmoqda. Jahon sahnalarida oʻzbek musiqasining shuhratini tanitayotgan xorijiy mutaxassislar ushbu yoʻnalishdagi oʻquv tizimi bilan qiziqib yurtimizga tashrif buyurmogʻa. Jumladan, 2022-yilda Toshkent shahrida SHHTga aʼzo davlatlardagi

konservatoriya rektorlarining I xalqaro forumi boʻlib oʻtdi. Va unda Toshkent deklaratsiyasi imzolandi. Ushbu hujjatga koʻra taʼlim tizimidagi anʼanalar asosida aloqalar oʻrnatildi. Hozirda Toshkent deklaratsiyasi hamkor davlatlarda oʻqitish tizimining yangi bosqichga chiqishiga katta zamin yaratmoqda.

Maktabgacha taʼlim hamda umumtaʼlim maktablarida ham musiqa darslari umumiy madaniy ong va dunyoqarashni oshirishga qaratilgan fan sifatida oʻqitilmoqda. Bu borada bolalar uchun yangi oʻquv musiqiy repertuari, darslik va qoʻllanmalar yaratilgan boʻlib, oʻquv amaliyotiga singdirilgan. Ayniqsa, umumtaʼlim maktablarida har bir oʻquvchi biron-bir musiqiy cholgʻuni oʻrganishi

Ayniqsa, dunyoda yuz berayotgan hozirgi tahlilali davrda Oʻzbekiston tinchlik, doʻstlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini taʼminlash, mintaqamizda yaxshi qoʻshnichiilik aloqalarini yanada rivojlantirish, dunyo mamlakatlari bilan faol hamkorlik yoʻlidan borayotgani ham tanlagan yoʻlimiz sobitligidan dalolat beradi. Bu ezuq maqsad va saʼy-harakatlarimiz esa Vatanimizning xalqaro miqyosdagi obroʻ-eʼtiborini yuksaltirishda tayanch boʻlib xizmat qiladi.

Oydin ABDULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Fan, taʼlim, madaniyat,
sport va yoshlar masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari.

Xorazm viloyatida Oʻzbekiston – Xitoy texnopark tashkil etiladi.

TABARRUK TASHRIFLARNING TOTLI MEVALARI



Abdusaid KO'CHIMOV,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati a'zosi, O'zbekiston
Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar
murabbiysi

1

...Isroil – Eron ziddiyatlari keskinlashdi. Amerika uchoqlari Eronga bomba yog'dirdi. Falastin – Isroil o'rtasidagi munosabatlari taranglashdi. G'azvo sektorida ochlik, g'ayriinsoniy azoblar. Rossiya – Ukraina urushi yanayam vahimali tusga kirdi.

Urush, xavotir, tashvish, bezovta-beoromlik ona sayyoramizning kechagina gurkurab turgan bog'larini o'rgimchak to'ridek o'rab borayotgan kunlarda O'zbekiston Prezidenti Toshkent viloyatiga bordi. Yozgi quyosh ziyolariga ko'milib mehnat qilayotgan dehqonlar, bog'bonlar, quruvchilar, yo'lsozlar, ziyolilar bilan uchrashdi, gurunglashdi. Korxonalariga, xonadonlarga kirdi, odamlarning orzu-o'yarlari, quvonch-tashvishlari, rejalari bilan tanishdi, fikrlashdi.

Janjallar, garchand, sarhadlarimizdan olislarda bo'layotgan esa-da, ular yoshu qari – hammamizga ipidan-ignasigacha ma'lum. Sharqning dono oqini Abdulla Oripov ta'riflagan “Quva anori”dek dunyoda bo'layotgan bo'ronlarni internet tarmoqlari ko'zgudagi lahza-mahza ko'rsatib turganda biron narsani yashirish qiyin. Ona zamin qalbidagi jarohatlar allaqachon hammamizning “yorilmagan yara”mizga aylanib bo'ldi. Osmono'par imoratlar yer bilan bitta bo'ldi, bog'lar kuydi, qishloqlar yondi. Ichi muzlab, umidi so'nib, qo'lli ishga bormay ko'chalarida sarsan-sargardon bir qancha mamlakatlarning begunoh fuqarolari. Dunyoviy qonun-qoidalar tugul BMT hujjatlarini ham bir chaqaga olmay qo'ygan zo'ravonlar esa hali-hanuz kibru havolardan qutulgan emas. Ular yuvuzlik girdobiga borgan sayin chuqurroq botib borayotgan damlarda O'zbekiston Prezidenti Toshkent viloyatiga bo'ldi.

Mamlakatning yirik qo'rg'onlaridan bo'lgan Toshkent viloyatining barcha shaharu qishloqlarini obod va ko'rkam qilish orzu-o'yarlari iqtidorga kelganidan buyon bir nafas ham tinch qo'ymayotgan davlat rahbarining bu galgi rejalari juda boshqacha...

“Bu diyorning eng asosiy boyligi – aslida, uning mehnatkash, bag'riking, ko'p millati xalqidir,” deya ta'riflagan Prezidentimiz Toshkent viloyati aqli huzuriga borayotib, poytaxt biqinida tubdan qayta qurilayotgan “Toshkent – Sharqiy” aeroportini ko'zdan kechirdi. Aeroportning to'rt kilometr uzunlikdagi uchish-qo'nish yo'lagini, eng yirik samolyotlarni ham bemalol qabul qila oladigan ikkita terminalni, perron va angaralarini barpo qilayotgan quruvchilarning ishlari bilan tanishdi.

Bu manzilni yangidan yaratish ham davlat rahbarining uzoq yillik orzularidan biri edi. Shundan edi quruvchilarning “Yangi aeroportning bosh arxitektori Prezidentimiz – Shavkat Mirziyoyevning o'zlari bo'ladi!” deya iftixor bilan mehnat qilishlarining boisi. Darhaqiqat, aeroport loyihasi, uning murakkab nuqtalarigacha bo'lgan chizmalarining hammasi shaxsan Prezident tashabbusi bilan yaratilgan. Aeroportning O'zbekiston iqtisodiyotiga, yo'lovchilarga keltiradigan behisob foyda va qulayliklari-yu viloyatda turizm darvozalarini katta ochib yuborishi ham besh qo'lday ayon edi Prezidentga. Amalga oshirilayotgan ishlarni har qadamida sinchiklab ko'zdan kechirgan davlat rahbari tegishli maslahat va ko'rsatmalar berdi, quruvchilarga tashakkurlar aytdi. Mehrii so'zlarni Yurtboshining lafzidan eshitish kishiga qanchalar quvonch, kuch va ilhom bag'ishlaganini o'zingiz tasavvur qilavering.

2

Yana tasavvur qilingki, siz qurama tog'lar orasida kumush kamardek yaltirab yotgan o'nlab daryo-yu soylarning eng sho'xi va go'zali bo'lgan Parkentsoy sohilda turibiz.

Toshlardan toshlarga urilib, qirg'oqlarga mayin epkinlar sachratgancha pastliklarga enayotgan, bir zamonlari Mirzo Bobur ot o'ynatib o'tgan, ne-ne jangu jadalgar guvohi bo'lgan Parkentsoy sohillarida hayot qaynaydi. Osmonga qo'l cho'zgan kanalar, qurilish anjomlari tashiyotgan mashinalar ovozi binokorlarning hay-haylarga qo'shilib jozibador, jangovar kuyga aylanib ketganki, qarab ko'zingiz to'ymaydi. 5 ming 200 xonadonga mo'ljallangan 125 ta ko'p qavatli uy, 2 ta maktab, 8 ta bog'cha, 10 gektarlik park, sun'iy ko'l, sayilgoh va veloyol'aklar barpo qilinishi kerak olki gektarlik mazkur manzilda. 17 kilometrdan iborat ichki yo'llar esa kaftday tekislanadi. Bundan ham zo'ri, 24 kilometr uzunlikdagi “Baytqo'rg'on – Parkent” elektrlashtirilgan temir yo'li quriladi...

Aslida xamir uchidan patir hali bular. Bir kitobga sig'maydi ularning barisin sanasak agar. Shul boisi ayrimlarini tilga olamiz: Kumushkonda 100 gektar yerda turizm obyektlari quriladi. Oltin bel cho'qqisida tashkil etiladigan tog'-chang'i kurort zonasida yangi ko'pri'k, 7 ta dor yo'li, 3 ta tog'-chang'i yo'li, 4 ta mehmonxona, 40 ta villa, 4 qavatli avtoturargoh, vertolyot maydonchasi, restoran, bolalar maydonchasi barpo etiladi. Avstriya kompaniyasi esa 1200 gektar maydonda tog'-chang'i kurorti yaratadi. Loyihalar to'la amalga oshganidan keyin kuniga 15 ming sayyohni qabul qilish imkoniyati paydo bo'ladi Parkentda. So'qoq tomonlarda ham ayni yo'nalishda yetti gektarlik

sayyohlik markazi tashkil qilinib, unda 100 kishilik choyxona, 350 xonali 2 ta 11 qavatli mehmonxona, shale tipidagi uylar, sog'lomlashtirish markazi, avtoturargoh, supalar, osma ko'priklar, kempinglar, kuzatuv maydonlari kabi 17 turdagi obyektlar barpo qilinadi.

Yangidan tashkil etiladigan 54 gektarlik bog'da gilos, olma, nok, malinaning eksportbop navlari yetishtiriladi. Fransiya va Ispaniya tomonlardan o'zini o'zi changlatish xususiyatiga ega daraxtlar keltiriladi. “Aqlii” agregatlar nami qochgan yerlarni avtomatik ravishda sug'oradi. Bu yil 500 tonna olma, 400 tonna nok, 256 tonna gilos, 30 tonna malina yetishtirish ko'zda tutilgan bo'lsa, kelajakda ularning miqdori ikki-uch barobar oshadi. Qisqasi, tumanda qiymati 1 milliard dollarlik 52 ta loyiha amalga oshiriladi. Natijada 3300 ta ish o'rmi, 1 million sayyohga xizmat ko'rsatish imkoni yaratiladi.

3300 ish o'rni. Bu – 3300 xonadon obodligi, agar har xonadonda uchtdan jon bo'lsa – 9900, 5 tadan bo'lsa – 16500 insonning xotirjamligi, to'qligi, ertasiga, indiniga ishonchining barqarorligi deganidir! Serfarzand parkentliklar uchun mazkur raqam qanchalar ahamiyatli ekanini tasavvur qilish qiyin emas. Bir million sayyohga xizmat ko'rsatish esa bir million ro'zg'orning to'kisligi, dasturxonining to'kinligini ta'minlaydi.

Jaloliddin Rumiylar hazratlari noyob saxovat egalari shunday ta'rif bergan: “Eng buyuk Haj bir ko'ngliga yo'l topib kirishdirl. Bir ko'ngil yuzlarcha Ka'badan go'zaldir. Ka'ba hazrati Ibrohimning binosi bo'lsa, ko'ngil Allohning nazargohidir”.

3

Mana endi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Toshkent viloyatiga qilgan bitta tashrifi necha minglab ko'ngillarga sevinch, baxt, umid, ishonch, go'zallik, nur bag'ishlaganini chamalab ko'ring. So'ngra uning yoniga yana o'n tashrifni qo'shing. O'n tashrif – o'n to'lg'anish, o'n uyg'onish, o'n evrilish. Har tashrifdan so'ng hech nima yo'g joylarda azamat korxonalar qad ko'tarayotgani, chaqirtirgan, ajriq bosgan yerlar gullarga ko'milib borayotgani, yuz-yuzlab oilalar uy-joyli bo'layotgani-yu qayerga bosh urishini bilmay yurgan minglab yoshlarning ish bilan ta'minlanganini hisoblab ko'rsangiz, Prezident tashriflarining mazmun-mohiyatini yanada teranroq his qilasis.

“His qilish” yoqimli, albatta. Ammo bunday yutuqlarga qanday erishildi? Yer o'sha, sav o'sha, ob-havo, odamlar – hammasi o'sha-o'sha-ku! Nega shuncha yillar mobaynida foydalanilmadi bunday imkoniyatlardan? Yoki hazrati Xizr bobomiz kutilmaganda xazina topib, “Oling, bo'talarim”, deya sovg'a qildilarni viloyat ahliga? Bunday savollarning hamma javobi yana Prezidentga, davlat rahbarining viloyat bo'ylab amalga oshirgan tabarruk tashriflariga, xalq huzuriga yo'l olishdan avval ularni qiynayotgan muammolarni hal qilish uchun qancha tunlarni bedor o'tkazgani, kitoblar varaqlagani, o'yg'a tolgani, dunyo tajribalarini tahlil qilgani-yu jonini qiynab izlanganlariga ulanib ketadi.

Izlagan imkon topadi, iloj topadi, yo'l topadi, deganlari shu bo'lsa kerak-da.

Faqat Toshkent shahri yoki viloyati emas, umuman, Prezidentning hech qachon, hech qayerga shunchaki “tomosha” uchun bormasligi, qay hududga yo'l olmasin, hamisha hech kimning xayoliga kelmagan tashabbus shodalar bilan borishi, davlat rahbarining qadami yetgan manzillari esa obodlik navolariga ko'milishi ajib an'anaga aylanib ketdi yurtimizda.

Yo'qni bor qilish, mudroq nigohlarni uyg'otish, sokin soylarga daryolar shiddatini olib kirish uchun qanday rohatbaxsh azoblarni boshdan kechirgani esa Prezidentimizning o'zi-yu yolg'iz Yaratganga ayon. Ishonchim komilki, bu so'zlarda zarracha mulbog'a yo'qligi isbotga muhtoj emas. Qolaversa, davlatimiz rahbarining dunyo taqdiriga doir murakkab masalalarga ham sharqona aql bilan oqilona



yondashayotgani, muammolar tugunini yechish yo'lidagi noyob qobiliyati jahonning tanliqi davlat va jamoat arboblari, yirik siyosatshilari tahsiniga sazovor bo'layotgani ham ayon haqiqat.

Eslang, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi qanchadan-qancha o'ydim-chuqur yo'llar tekislandi, Yevropa davlatlarining ishonchi qayta tug'ildi bu zaminga, dunyo banklariga, ishblaromtlariga darvozalar katta ochildi, hech kim tan olmay, yakkalanib qolayotgan Afg'onistonga munosabat tubdan o'zgaromqda. Zotan, shunday vatanparvar, tinchliksevar, bir so'zli fazilatlar isbotlaydi ulug' shaxslarning tarixdagi o'rini.

Yaxshi bilimiz: O'zbekiston Prezidenti uchun aytilgan so'z – otilgan qo'v. Va'da – vafosi bilan aziz. Yuzlab misollar keltirish mumkin birgina Toshkent viloyatining o'zidan.

Masalan, Shavkat Miromonovich 2017-yilda To'ytepa shaharchasini viloyat markaziga aylantirish haqida so'zladi. Sal o'tmay, To'ytepa qayta nomlanib, Nurafshon shahri sifatida Toshkent viloyatining ma'muriy markaziga aylandi. Tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi 7-8 yil orasida Nurafshon. Bir mahallar Nukent, keyinchalik To'ytepa nomidagi bu manzil kattaligi bo'yicha Biskent, Qang'a, Banokat, Toshkent singari shaharlar qatorida turgan bo'lsa-da, umrida bugungidek obodliklarni ko'rmmagan. Shahardagi 22 ta mahallaning hammasi ko'cha va uylari boshqatdan qurildi. “Aqlii shahar” konsepsiyasi asosida

Singapurning “DIIPART” kompaniyasi hamkorligida qiymati 2,5 milliard dollarlik ishlar boshlanib ketdi. Chig'iriq va “PSHK” qo'rg'onlari shahar hududiga o'tkazildi. 246 gektar maydonda 20 ming aholi yashaydigan shaharcha qad rostlay boshladi. Ikkinchi bosqichda aholi soni 63 mingga, shu yil adog'ida esa 77 mingga yetadi.

Tasdiqlangan bosh rejaga muvofiq 246 gektar maydondan iborat shahar qurilishi uch bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda 114 gektar yerda 20 ming aholi istiqomat qiladigan 72 ta bino va inshoot bunyod etiladi. Ikkinchi bosqichda maydon 95 gektarga kengayib, 53 ming aholi uchun 80 ta bino va inshoot quriladi. Uchinchi bosqichda qurilish yana 37 gektarga kengayib, 77 ming aholi yashaydigan 48 ta bino quriladi.

Hozirgacha 168 o'ringa mo'ljallangan 2 qavatli “Prezident maktabi”, zamonaviy me'morchilikning so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etgan ko'p qavatli uylar, zamonaviy binolar foydalanishga topshirildi. Yangi maktablar, institut va universitet, xiyobonlar, tijorat banklari, biznes markazlari, teatrlar, kutubxonalar, Yoshlar markazi, amfiteatr, o'yingohlar, ishlab chiqarish korxonalari barpo etish davom etmoqda. Vatanparvar bog'i, Media xodimlari va ijodkorlar bog'i, Zulfiya Zokirovaga bag'ishlangan “Matonat madhiyasi” memorial majmuasi, gipermarket, sog'lomlashtirish yo'laklari qurilyapti. Kelgusida Toshkentdan Nurafshonga hamda boshqa yo'nalishlarga qatnovchi tezayur elektrobuslar qatnovi yo'lga qo'yiladi. Toshkent bilan Nurafshon o'rtasida yer usti metro qatnovi ham bu yerning o'ziga xos salohiyati ifodasiga aylanadi. Prezidentimizning “Yevropaning sanoqli davlatlarida bor bo'lgan eng zamonaviy shaharni biz Toshkent viloyatidan boshlab beraylik”, degan ezuq niyatlarining ifodasiga aylanadi bularning hamma-hammasi.

Ha, Nurafshon hademay “aqlii shahar” sifatida mamlakatimiz faxriga aylanadi.

Yaqinda, aniqrog'i, Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari bayrami arafasida “Matonat madhiyasi” memorial majmuasi ziyoratida bo'lgan



jurnalistlar viloyat hokimi Zoyir Mirzayevning so'zlarini eshitib, faxru iftixorga to'ldilar.

– 2025-yilda 612 ming aholini ish bilan ta'minlashimiz, 25,3 ming oiladagi 115,7 ming kishini kambag'allikdan chiqarishimiz kerak, – dedi hokim. – Rejani amalga oshirish uchun viloyat hokimligi, respublika Xalq banki va Markaziy bankning viloyat bosh boshqarmasi o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolangan. Banklar tomonidan Sayxunobod tajribasi asosida har bir mahallada 40 tadan jami 41 mingta mikroloyiha amalga oshirildi, 82 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratiladi. Har bir mahalladan kamida 10 tadan jami 10250 ta xonadonning o'rtacha yillik daromadi 60 – 70 million so'mgacha yetkaziladi. “Bir kontur – bir mahsulot” asosida jami 649,2 gektarda 61 ta namunali loyiha amalga oshirildi.

Uychi tajribasi asosida 150 mingta doimiy ish o'rni yaratiladi. Buning uchun 10,8 trillion so'm imtiyozli kredit ajratiladi.

Bundan tashqari, 2025-yilda 2,4 milliard dollarlik eksport amalga oshirilishi va o'tgan yildagiga nisbatan 166 foiz o'sish ta'minlanishi kerak. Jumladan, sanoat mahsulotlari eksporti 2,2 milliard dollarga, meva-sabzavot eksporti 220 million dollarga yetishi zarur.

Hokimning so'zlaridan ayon bo'ldiki, eksport hajmini oshirish viloyatda rivojlanish drayveriga aylangan. Unga ko'ra eksport hajmi to'qimachilikda 480 million dollarga, elektrotexnika sanoatida 332 million, qurilish materiallarida 200,6 million, oziq-ovqat sanoatida 175,7 million dollarga ko'payadi.

Turizm sohasida 2025-2026-yillarda umumiy qiymati 3 milliard 285 million AQSH dollariga teng 265 ta investitsiya loyihasi ishga tushiriladi va 14 ming 487 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

Birgina “Chorvoq darvozasi” loyihasi bo'yicha Angren daryosi, Parkentsoy va Chinozning Sirdaryoga tutash sohillarida bir qancha ko'p qavatli uylar, mehmonxonalar, dam olish va ko'ngilochar maskanlar, xizmat ko'rsatish va savdo shoxobchalari ishga tushiriladi.

Bekobod tumanining yangi hokimi Z. Nizomiddinovdan Sirdaryo ustida yangi ko'pri'k qurilayotgani, yaqin kelajakda esa Xovos shaharchasidan Bekobod, Bo'ka, Piskent, Parkent bo'ylab quriladigan temir yo'li haqida eshitganimizda, mamlakat rahbarining tashriflari naqadar serhosil ekanini yana bir karra angladik.

4

Ha, yutuqlarning hammasi Prezident tashriflarining shirin mevalari. Ularning qatoriga 2018-yilgi tashrifdan keyin “O'zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga qarashli yirik investitsiya loyihalaridan biri – ferroqotishmalar ishlab chiqarish sexining ishga tushirilishi, 2021-yilda OKMK tarkibidagi “Yoshlik – 1” koni negizida 3-mis boyitish fabrikasi qurilishi va Yuqori Chirchiq tumanida “Astrum” IT akademiyasi o'z faoliyatini boshlab yuborgani, 2022-yilda Zangiota tumanida “Mening birinchi uyim” yangi ipoteka dasturini Toshkent viloyatidan boshlash tashabbusi joriy qilingani, “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparki ochilgani, 2023-yili Ohangaron tumanidagi “Tashkent Konch sement”, Quyi Chirchiq tumanidagi “Tashkent koton tekstil”, Yuqori Chirchiq tumanidagi “Aziya Tashkent tekstil”,



“Salyubris Vita”, Angren shahridagi “Angren kaolin”, “Sentral Aziya Kemikals”, Nurafshon shahridagi “Agro Nyu Drip”, Chirchiq shahridagi “Sharq Tyubs”, Parkent tumanidagi “Samsarak fayz” va “Shabnam Elegant” kabi yirik korxonalarning ishga tushirilgani hamda bu korxonalarda sement, kalava ip, to'qimachilik, farmatsevtika, boyitilgan kaolin, kimyo mahsulotlari, tomchilatib sug'orish shlanglari, rangli metallar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani; 2024-yilda OKMK tarkibidagi “Yoshlik – 1” koni negizida 4-mis boyitish fabrikasiga start berilgani, Toshkent – Xo'jakent yo'nalishida yangi elektropoyezd qatnovi boshlangani, viloyat korxonalari tomonidan shu yilning o'zida 7 507,6 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgani va bu 2017-yildagiga nisbatan 7 barobar ko'pligi, 100 dan ortiq davlatlar bilan investitsiya va eksport sohaslarida hamkorlik yo'lga qo'yilgani, investitsiya dasturlari doirasida 71 ta davlat bilan umumiy qiymati 11,5 milliard dollarga teng 200 dan ziyod investitsiya loyihalarini portfeli shakllantirilgani, birgina Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorlikda 4 milliard dollardan ortiq 25 ta



investitsiya loyihasi amalga oshirilayotgani kabilar qo'shilsa, manzaraning salobati yanada tiniqlashadi.

5

– Prezidentimiz hamisha “ko'zga ko'rinmas” imkoniyatlar ilidizini topib, ulardan foydalanish chora-tadbirlarini ko'rsatib beradilar, – so'zida davom etadi viloyat hokimi. – Bir kelganlarida xitoylik tadbirkor, “Galanz” kompaniyasi asoschisi Lyan Chjaosyan haqida so'zladilar. Dunyodagi eng yirik maishiy texnika ishlab chiqaruvchi zavodlardan hisoblangan mazkur kompaniya tashkil topgan 1992-yilda Xitoy bo'yicha hammasi bo'lib atigi 200 mingta mikroto'liqni pech chiqarilgan ekan. Oradan ikki yil o'tgach, kompaniya deyarli 5 ming do'kondan iborat milliy savdo tarmog'i barpo qiladi, o'n yildan keyin kuniga yuz ming mikroto'liqni pech ishlab chiqara boshlaydi. 2013-yilda 4,5 milliard dollardan ortiq daromad olib, qirq ming kishini ish bilan ta'minlaydi. Lyan Chjaosyan 1,01 milliard dollar bo'ylik bilan “G'orbes”da dunyoning eng boy odamlari ro'yxatiga kiradi. Bu hikoya viloyatimizdagi juda ko'p tadbirkorlarga ilhom bag'ishladi.

2017 – 2024-yillarda tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar viloyat hokimining so'zlari naqadar to'g'riligini tasdiqlaydi. Yana misollarga murojaat qilamiz. 2019-yili Bo'stonliq tumanida “Amirsoy” tog'-chang'i kurorti rasman ish boshladi. 2020-yildan viloyatning 6 ta hududini “Oltin halqa” turizm konsepsiyasi asosida rivojlantirishga kirishildi. 2021-yili Parkent tumanining so'lim go'shalaridan biri Kumushkon mahallasi respublikada birinchi “Turizm qishlog'i”, “Turizm mahallasi” maqomini oldi. 2021-yildan buyon Toshkent viloyati “Xalqaro jeep sprint” musobaqasiga mezbonlik qilmoqda.

Viloyatda o'tgan 5 yilda 267 ta turizm obyekti barpo etilib, sohaga 5,5 trillion so'm va 156,1 million dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi.

2024-yili 282 million dollar miqdoridagi 56 ta loyiha amalga oshirilishi natijasida 1042 ta yangi ish o'rni yaratildi. Viloyatga 16 million 337 ming nafar turist keldi. Ularning 984,2 ming nafari xorijiy turistlardir. Turizm xizmatlari eksporti 390 million AQSH dollariga yetdi.

Hozir 74 ta oilaviy mehmon uyi hamda mahalliy va xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatuvchi 46 ta turistik firma faoliyatini yo'lga qo'yilgan. Ohangaronning Ertoshsoy va Ovjassoy qishloqlariga, Parkentning Chashma, Kumushkon qishloqlariga “Turizm qishlog'i” maqomi berilgan.

Chirchiq davlat pedagogika universitetining turizm fakulteti va Bo'stonliq turizm va servis kolleji 542 nafar talaba tahsil olmoqda. 2024-yilda ta'lim muassasalarini tamomlagan yoshlarning 152 nafari o'z yo'nalishi bo'yicha ishga joylashtirildi.

Viloyatda turizm diversifikatsiyasi, ya'ni hududlarda turizmning aniq bir yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashuv dasturi qabul qilingan. Unga ko'ra, Zangiota va Toshkent tumanlarida tibbiyot turizmi, Ohangaron, Piskent, Chinoz va O'rta Chirchiq tumanlarida ov turizmi, Bo'stonliq, Parkent tumanlari va Angren shahrida tog' ekstremal turizmi, Zangiota, Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron, Oqqo'rg'on, Yuqori Chirchiq tumanlari va Angren, Nurafshon shaharlarida ziyorat turizmi, Bo'stonliq, Parkent, Chinoz, Bo'ka, Yangiyo'l, Qibray tumanlari va Yangiyo'l shahrida gastronomik turizm, Bo'stonliq, Parkent, Ohangaron tumanlari va Angren shahrida ekov va agroturizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Suv havzalari bo'yilaridan turizm maqsadida unumli foydalanish yo'nalishida “Tuyabo'g'iz” suv havzasidagi “TashVegas” oromgohida zamonaviy basseyn va plyaj foydalanishga topshirildi. Nurafshon shahrida sun'iy ko'l havzasi tashkil etilib, doimiy ravishda tashrif buyuruvchilarga konsert dasturlari va ko'ngilochar xizmatlar ko'rsatilmoqda. Bo'stonliq tumanining “Xevens Garden” dam olish maskanida Singapurning “Marina-Bey” suv havzasi andazasi asosida zamonaviy basseyn bunyod etildi. Kichik hajmdagi suv havzalari soni 184 tadan oshib ketdi.

6

Toshkent viloyatini mamlakatimizning eng yirik hududlaridan, dedik. Darhaqiqat, bir tomoni Qozog'iston, bir tomoni Qirg'iziston va Tojikiston Ryespublikalari, yana bir tomoni Namangan va Sirdaryo viloyatlariga tutashib ketgan bu zaminning 15 ta tumani va 7 ta shahrida 80 millatga mansub 3 million 100 mingdan ortiq aholi istiqomat qilmoqda.

Qurama, Piskom, Ugom, Chotqol kabi tog'lar atrofida qo'r to'kib turgan zaminning Chirchiq-Ohangaron vodiysi, Qurama tog'i, Angren va Olmalik atroflari mis, polimetall rudalariga, oltin, kumush, qo'rg'oshin, aliuminiy kabi foydali qazilmalarga, qo'ng'ir ko'mir, molibden konlari, plavik shpati va dala shpati hamda turli xil qurilish materiallariga to'la.

Viloyatda energetika, mashinasozlik, metallurgiya, ko'mir, kon metallurgiyasi, kimyo sanoati, poyabzal, paxta tozalash, oziq-ovqat, to'qimachilik hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlari gurkurab rivojlanmoqda. Bekobod shahridagi “O'zmetkombinat”, Olmalik shahridagi OKMK, Angren ko'mir konlari, Chirchiq qishloq xo'jaligi mashinasozligi klasteri kabilarning shuhrati mamlakatimiz tashqarisida ham ma'lum va mashhur.

Viloyat haqida so'z borganda, So'qoqning shahligi, Parkentning mador somsasi, Bo'kanning choyxona palovi, Piskent mantisi, Chinozning qovurib, karsilatib pishirilgan karas balig'i yoxud Bo'stonliqning “Bochka” mastavasi, Qibray halimi, Yuqori va O'rta Chirchiq tumanlaridagi koreys kuksi kabi noyob taomlarni esga olmaslik mumkin emas. Viloyatdagi har bir millatning o'ziga xos badiiy jamoalari mavjud. Masalan, Angrenda “Chotqol navolari” xalq folklor-etnografik jamoasi, “Shosh Illoq marjonlari” folklor jamoasi va “An'ana” bolalar folklor to'garaklari bor. Ularda milliy qadriyat, urf-odat va an'analari tarannum etilsa, Ohangaron shahridagi “Qurama” folklor-etnografik xalq ansambli va Chirchiq shahridagi “Sug'diyon” tojik milliy madaniyat markazida turli millatlarga mansub aholining dilbar kuy-qo'shiqlari kuylanadi.

7

Ammo, ta'kidlash kerakki, qadimdan Buyuk Ipak yo'lidagi ilm-fan, hunarmandchilik, madaniyat taraqqiy etgan makonlardan bo'lgan Toshkent viloyatining tarixi hali-hanuz mukammal o'rganilgan emas. Xo'jakent yaqinidagi g'ordan topilgan tosh davriga mansub odam suyaklari qoldiqlari va qoyalardagi suratlar bu vohada qadimga ibtidoiy odamlar yashaganidan dalolat bersa, Yunon, Xitoy va Sharq manbalarida miloddan avvalgi V – II asrlarda ham bu zaminda odamlar istiqomat qilgani aytiladi. Ko'buloq yaqinidagi Qizilolmasoy va Qo'shsaydan topilgan qadimiy tosh qurollar yasalgan ustaxona esa viloyat zaminini olis-olis zamonlarda ham odamlarning muqaddas manzilgohi bo'lganidan dalolat beradi.

Chirchiq vodiysidagi Burganli soyidan topilgan temir davriga oid sopol, metall, toshdan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari, jumladan, choynaksimon tumshuqli va quloqli qozonlar, mehnat qurollari miloddan avvalgi asrlarda ham viloyatda rivojlanish bo'lganini tasdiqlaydi.

Keyinchalik vohada qal'a va shaharchalar ko'payib ketgani bo'is bu yerlarga Shosh, ya'ni ming qal'ali davlat ta'rif beriladi. Ming qal'alarining biri bo'lgan Oqtqora qo'rg'oni o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mustahkam mudofaa devortlari bilan o'ralgan qal'a ilk o'rta asr shaharlarining aqli va shahristoni bo'lgan.

Hozir viloyatda sayyohlar tomonidan 20 ga yaqin mashhur ziyorat manzillari bor. Shayx Umar Vali, Avliyosoydagi Ikrima o'ta, Qadamchi buva, Avliyo Parpi o'ta, Qirg'izobod yoki Qirg'izqiz momo ziyoratgohlari shular jumlasidandir.

Umuman, hozir Toshkent viloyatining arxeologik xaritasiga 760 ta ko'hna manzilgoh, shahar va qishloq xarobalari, qadimgi qabrstonlar, mudofaa va irrigatsiya inshootlari kiritilgan. Kiritilmagan va o'rganilmaganlari yana qancha ekanlari esa ma'lum emas.

Ma'lumi shuki, O'zbekiston Prezidentining viloyatga har safargi tashrifida barcha sohalar kabi aziz-avilyolarning qadamjolarini obod qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ulug' bobolarimiz qo'llab turgan yurt esa oyma-o'yi, kunma-kun rivojlanib, yuksalib borayotir.

Toshkent viloyati O'zbekistonning Ko'rkam bog'larida chinor bo'lgaydir. Dilbar lavhalarni ko'rgan insonning Qalbi daryo-daryo nurga to'lgaydir. Chashmalar soylarga bo'lgaydir yo'ldosh, Ro'yobga choqqaydir ertaklar, tushlar. Falakda yarqibay nur sochqay quyosh, Bardavom bo'lgaydir qutlug' tashriflar...

O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN MUHIM TASHABBUSLAR

O'zbekistonning xalqaro sahnadagi mavqeini yanada mustahkamlaydi



Hamkorlikning yangi bosqichi

Davlatimiz rahbari IHT 17-sammitidagi nutqida alohida ta'kidlaganidek, har qanday tinchlik va taraqqiyotning asosi, eng avvalo, iqtisodiy hamkorlik bilan belgilanadi. Shu bois tashkilot doirasidagi sheriklik bugungi kunda nafaqat tabiiy, balki muhim strategik ahamiyatga ega ekanini e'tirof etgani holda, ko'p qirrali sheriklikni yanada rivojlantirish yuzasidan muhim taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Birinchidan, IHTning o'rta va uzoq davrdagi ustuvor rivojlanish yo'nalishlarini belgilab olish uchun "Iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadlari – 2035" konsepsiyasini qabul qilishga chaqirdi. Hujjatda savdo, investitsiya, transport, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, ekologiya, turizm va ta'lim kabi an'anaviy yo'nalishlar bilan birga, innovatsiyalar, sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohalarida hamkorlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish kerakligi ta'kidlandi. Chunki taraqqiyotning hozirgi bosqichida ushbu sohalarini rivojlantirmasdan turib, marraga erishib bo'lmaydi.

Ikkinchidan, tashkilot doirasida tovar va xizmatlar savdosini soddalashtirish, texnik va notarif to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish, elektron savdoni rivojlantirish masalalari, ayniqsa, dolzarb. Statistik raqamlar dalolat berishicha, hozirgi kunda o'zaro savdo hajmi past darajada. Bu ko'rsatkich 2024-yilda 95 mld. dollarga teng bo'lib, mamlakatlarimiz umumiy savdo aylanmasining 10 foizini tashkil etdi, xolos. Mazkur yo'nalishda strategik masalalarni muhokama qilish, Savdoni soddalashtirish to'g'risidagi bitimni kelishish maqsadida joriy yil Toshkentda savdo vazirlarining uchrashuvini o'tkazish taklifi ilgari surildi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi bo'yicha tezkor ma'lumot almashish va to'siqsiz yetkazishga qaratilgan "yashil yo'laklar" tizimini yaratish ham o'ta muhim masala sanaladi.

Uchinchidan, sarmoyaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, investitsiya muhitini yanada shaffof va jozibador etish maqsadida uzoq muddatli "Ekoinvest" dasturini qabul qilish taklifi berildi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, aynan shunday dasturlar orqali mintaqamizdagi istiqbolli loyihalarga xususiy investorlar, banklar va xalqaro moliya institutlarini eng jalb etish mumkin.

To'rtinchidan, so'nggi vaqtlarda dunyo hamjamiyati keskin



inqirozni boshidan kechirayotir. Aksariyat ziddiyat va nizolar aynan IHT makonida sodir bo'layotgani fikrimizning tasdig'idir. Janubiy Osiyo va Yaqin Sharqda yuz bergan voqealar, xalqaro huquq va global xavfsizlik institutlarining tanazzuli muloqot va hamkorlikni yanada zaiflashtirib, kuch ishlatish va zo'rvonlikka keng yo'l ochmoqda. Demakki, geosiyosiy voqealar xalqaro logistika zanjirlarining uzilish xavfi naqadar yuqoriligi hamda muqobil transport yo'laklarini shakllantirish strategik ahamiyatga ega ekanini yana bir bor isbotladi. Bu borada Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'li loyihasini amalga oshirish boshlangani, kelgusida ushbu magistral tarmoq Transaf'gon yo'lagi bilan tutashib, keng mintaqamizdagi tranzit tarmoqlarini samarali birlashtirish imkonini berishi bilan ahamiyatli.

Beshinchidan, mintaqada yangi aviaqatnovlar yo'nalishlarini ochish, aviakompaniyalar o'rtasida innovatsion hamkorlik shakllarini yo'lga qo'yish, turizm va aviatsiya sohalarini o'rtasida marketing bo'yicha integratsiyalashgan strategiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu masalalarni muhokama qilish maqsadida Milliy aviakompaniyalar forumini Samarqandda tashkil etish taklif qilindi. Shubhasiz, tashkilot davlatlari o'rtasida aviaqatnovlar jadallashtirilmas ekan, sayyohlikni rivojlantirish borasidagi tashabbuslar xayoliy bo'lib qolaveradi. Vaholanki, a'zo davlatlar kelajakda turizm sohasida sayyohlar oqimini ikki barobar oshirish uchun yetarli salohiyatga ega.

Oldinchidan, tashkilot doirasida cho'l hududlarida o'rmonlar barpo qilish, rekreatsiya zonalariga asos solish bo'yicha Transchegaraviy "yashil dasturi"ni ishlab chiqish taklifi ilgari surildi. Bu judayam asosli taklif bo'lib, dunyo miqyosida cho'llanish, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik va suv taqchilligi davom etayotgan hozirgi murakkab sharoitda o'rmonlar, yashil hududlarning tashkil etilishi muammo ko'laminii qisqartirishga yordam beradi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan ushbu tashabbuslar IHT davlatlari

o'rtasida amaliy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, tashkilotning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va nufuzini yanada oshirish, eng asosiysi, uning faoliyatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Tranzit salohiyati oshiriladi

O'zaro iqtisodiy hamkorlik yanada jadallashtirishda mintaqalarimiz transport yo'laklarini kengaytirish va tranzit salohiyatini oshirish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Biz, O'zbekiston – Turkmaniston – Eron – O'mon, O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy transport yo'laklarini, shuningdek, Ozarbayjon orqali Turkiya va Yevropa davlatlariga chiqish yo'llarini rivojlantirishdan manfaatdormiz. Shu bilan birga, yangi taklif etilgan Mozori-Sharif – Kobul – Peshovar temir yo'lining qurilishi Afg'onistonni mintaqamizga integratsiya qilish va barqaror taraqqiyotga erishishda katta turki bo'ladi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, mazkur transport yo'laklari mahsulotlarimizni jahon bozoriga arzon narxlarda chiqarish imkoniyatini yaratadi. Demak, ulkan bozorga ega bo'lgan mamlakatlarning savdo va investitsiya sohalaridagi mavjud katta imkoniyatlaridan to'liq foydalanilisa, yurtimizga, mintaqamizga katta miqdorda sarmoyalar kirib keladi, bundan xalqimiz ham, tashkilotga a'zo davlatlar aholisi ham birdek foyda ko'radi.

IHT har qanday mintaqaviy tuzilmadan farqli o'laroq, Afg'onistondagi vaziyat barqarorlashuvini chindanda xohlaydi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyoning uchta mamlakati – O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston, shuningdek, Eron hamda Pokiston Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lib, ularning barchasi afg'on o'rtasidagi savdoni oshirish uchun yetarli salohiyatga ega.

IHTning hozirgi kundagi maqsadlari aniq, pragmatik va shaffof. Bu savdo-sotiq yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish, mintaqalar o'rtasidagi savdoni rivojlantirish va IHTga a'zo mamlakatlar tovarlarini

global bozorlarga olib chiqishga yo'naltirilgan. Madaniy va tarixiy aloqalarni mustahkamlash ham undan kam bo'lmagan ahamiyatga ega.

Umuman olganda, IHTning jipslashuvi mintaqadagi qolgan faol aktorlar manfaatlariga zid kelmaydi. Ular IHTga a'zo mamlakatlar bilan shuzis ham ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama asosda ("5+1", SHHT, YEOII) hamkorlik qilib kelmoqda.

IHTga a'zo mamlakatlar transport va energetika koridorlari bilan bog'liq Chobahor hind – Eron loyihasi amalga oshirilishidan manfaatdor. Jumladan, O'zbekiston Eron Islom Respublikasini ochiq dengizga chiqishi uchun eng yaxshi, eng qulay va eng arzon yo'nalishlardan biri sifatida biladi. Tehron ham, o'z navbatida, o'zining temir, avtomobil va dengiz yo'li tarmog'i, xususan, Bandar Abbas va Chobahor portlaridan o'zbekistonlik tadbirkorlarning savdo-iqtisodiy maqsadda foydalanishi, O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi uch tomonlama bitim, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hamda boshqa kelishuvlar doirasida ayni yo'nalishdagi hamkorlikning huquqiy, konsullik va bojxona bilan bog'liq shart-sharoitini yaratishga harakat qilmoqda. Eron tomoni O'zbekistonni Chobahor bitimiga hamda "Shimol – Janub" yo'lagiga qo'shishga tayyorligini bildirgan. Shu kunga qadar mazkur masalada ko'plab tashriflar uyushtirildi, muzokaralar amalga oshirildi. Xuddi shuningdek, O'zbekiston temir va avtomobil yo'li tarmog'i eronlik tadbirkorlarning boshqa davlatlarga chiqishi uchun qulay yo'nalish hisoblanib, ikki tomonlama, mintaqaviy va xalqaro bitimlar doirasida ushbu imtiyozdan foydalanaypti.

Shubhasiz, yuk tashishni yengillashtirish va soddalashtirishda transport va logistika sohasini raqamlashtirish o'ta muhim. Bu boradagi ishlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish maqsadida davlatimiz

Davlatimiz rahbari tomonidan IHT sammitida bildirilgan taklif va tashabbuslar O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy sahnadagi mavqeini yanada mustahkamlaydi. Zotan, o'zaro ishonchga asoslangan egzu tashabbus va teng manfaatli hamkorlikdan O'zbekiston ham, qolgan davlatlar ham foyda ko'radi, albatta. Erishilgan ahdonomalar, kelishuvlar amalga oshsa, a'zo davlatlar o'rtasida investitsiyalar, tovarlar va xizmatlar erkin aylanishi ta'minlanadi. Bu yangi bozorlar paydo bo'lishi, qo'shimcha ish o'rinalari yaratilishi, aholining barqaror daromad bilan ta'minlanishi, qisqacha aytganda, umummanfaatga xizmat qilishi muqarrar.

Sherzod SINDOROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining infrazulimani
rivojlantirish va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektori, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor.

Xalq so'zi
Narodnoye slovo

TANLOVIGA

rahbari Raqamli transport va bojxona idorasini tashkil etish to'g'risidagi tashabbusni amalga tatbiq qilishga va ekspertlar darajasidagi muzokaralarni jadallashtirishga chaqirgani yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi.

Mintaqadagi markaziy davlat

Bugun mintaqada mustahkam hamkorlik hamda globalizm va regionalizm o'zaro chatishib ketganiga shohid bo'lib turibmiz. Turli davlatlararo tuzilmalar – SHHT, YEOII, IHT, "Bir makon, bir yo'l", "MO+1" va boshqa tashkilotlar manfaatlarining yaqinlashuvi ularning ehtimol tutilgan raqobatini yumshatadi hamda kuch va manfaatlar muvozanatiga rioya qilish uchun platforma yaratadi. Ayni chog'da global davlatlarning mintaqaviy muammolarni hal etishdagi ishtiroki darajasini mintaqaning o'zi manfaatlar muvozanatiga rioya qilish asosida tartibga soladi.

O'ziga xos tarix, madaniyatga ega mintaqamiz ayni payt yanada jipslashib, integratsiyalashmoqda. Bu borada O'zbekistonning roli juda muhim. Bir tomondan, davlatimiz rahbarining taklif va tashabbuslari tufayli Turkiya, Eron va Pokiston o'rtasidagi siyosiy ishonchsizlik o'rinni savdo-iqtisodiy to'siqlarni olib tashlashga qaratilgan qulay biznes muhiti egalladi. Natijada tashkilotning salohiyati yuksaldi. Markaziy Osiyoda esa Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari orqali siyosiy ishonch ortdi. O'zbekiston mintaqaning yuragi sifatida Markaziy Osiyo integratori rolini tobora kengaytirmoqda, shu bilan birga, barcha mintaqaviy tashkilotlardagi ishtirokini faollashtirib, xalqaro miqyosda dadil tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan IHT sammitida bildirilgan taklif va tashabbuslar O'zbekistonning xalqaro va mintaqaviy sahnadagi mavqeini yanada mustahkamlaydi. Zotan, o'zaro ishonchga asoslangan egzu tashabbus va teng manfaatli hamkorlikdan O'zbekiston ham, qolgan davlatlar ham foyda ko'radi, albatta. Erishilgan ahdonomalar, kelishuvlar amalga oshsa, a'zo davlatlar o'rtasida investitsiyalar, tovarlar va xizmatlar erkin aylanishi ta'minlanadi. Bu yangi bozorlar paydo bo'lishi, qo'shimcha ish o'rinalari yaratilishi, aholining barqaror daromad bilan ta'minlanishi, qisqacha aytganda, umummanfaatga xizmat qilishi muqarrar.

Sherzod SINDOROV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining infrazulimani
rivojlantirish va iqtisodiyot ishlari bo'yicha prorektori, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor.

Ezgulik

KELAJAKKA UMID UYG'OTGAN RAG'BAT

– Tanamda og'riq turib do'xtirga borsam,obdan so'radi,tekshirdi,so'ng biroz o'ylanib turdiyu kasallikni ancha o'tkazib yuboribsz-da,ertaroq kelsangiz bo'lmaydimi? – dedi. Yuragim shuv etdi,bexosdan boshim aylanib devorga suyanib qolibman.

Davolanishga tushdim,ammo bir oylar chamasi o'tsa-da,foydasini ko'pam sezmadim. Shu orada qizim ruhiy xastalikka chalindi. Dard ustiga chipqon bo'ldi bu. Yashashdan ham,ishlashdan ham ko'nglim sovidi. E,Xudo deymen,men-ku ozmi-ko'pmi yashadim,ko'rdim,qizimda ne gunoh,axir u norasida-ku?!



Shunday kunlarning birida boshqarmaning yangi boshlig'i Xivaga kelgan, sizni so'rayapti, ishxonaga keling, deya qo'ng'iroq bo'ldi. Shuncha kun isha borolmadim, arizangizni yozing, keting, desa kerak, boshqa nimayam, derdi?! O'ylayman: nachora, buyam bir sinovdir. Boshimda ming bir o'ylar charx uradi, endi nima qildim?..

Xorazm viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Sherzod Abilov bo'y-basti kelishgan yigit ekan, hammasini eshitdim, sog'ayib keling opa, biz esa sizga mana bu texnikani lozim ko'r'dik, muborak bo'lsin, charchamang! Shu mototsiklga minib to'xtamang ham, dedi. Hamkasblarim gurra qarsak chalishdi. Texnikaning kalitini qo'limga olyapmanu sevinganimdan beixtiyor ko'zimdan duv-duv yosh to'kiladi, deng. Mana, 25 yildan oshdiki, Xiva tumanida vetfel'dsher bo'lib ishlayman, ammo bu orada hech kim menga na rahmat, na bir og'iz shirin gap aytdi.

Yap-yangi mototsikl – bu mukofot, tushimga ham kirmagan. Hayratdaman, hayratda! Texnikani minib ko'rdim, zo'r ekan, juda ishbop, asbob-uskunalar qo'yadigan joyi ham bor.

Xivalik oddiy qishloq ayoli, texnikumda o'qib, o'zi sevgan kasbda ishlab qadr topgan Muayassar Bobojonova biz bilan xayrlashar chog' yanada ko'tarinki kayfiyatda shunday dedi:

– Aytсам ishonmaysiz. Yaqinda navbatdagi yarim yillik tibbiy ko'rikdan o'tdim, muolaja natija beribdi. Sog'ayishni boshlabman. Qizimda ham o'zgarish bor, bu behad quvonganim, oilamizda yashashu ishlashga rag'batim oshganidan, albatta. Yaratganning qudratidan lolman. Ayni kezdagi dilimdagi gapni esa aslo mubolaga demang – men kabi oddiy kishilarni, nochor oilalarni qo'llab-quvvatlayotgan yangi O'zbekiston boqiy bor bo'lsin!

Abdunabi ALIQULOV
("Xalq so'zi").

QAL'AJIQNING IKKINCHI UMRI

Qal'ajiq – Xorazm vohasidagi eng qadimiy qal'alardan biri. U miloddan avvalgi IV asrda barpo etilgan. Bog'ot tumani hududida joylashgan ushbu qadimiy osoriyatiga noto'g'ri to'rtburchak shakliga ega bo'lib,umumiy maydoni 6 gektarni tashkil qiladi. Devorlarining qalinligi 5 metr,balandligi 12 – 14 metr bo'lgan. Undan muhofaa istehkomi sifatida foydalanilgan. Qal'a devorlari ustidagi kamondan o'q uzish uchun mo'ljallangan maxsus teshiklar hozirgacha saqlanib qolgan.

Turizm

Qal'aning yana bir xarakterli xususiyati shundan iboratiki, uning janubida shifobaxsh tarkibiga ega tabiiy tuzli ko'l joylashgan. Bu maskan har yili saraton chillasida shifo istab kelgan yurtdoshlarimiz bilan gavjumlashadi. O'tgan asrning 60 – 70-yillarida qal'aga olib boruvchi yo'l bo'lmagani sababli sayohatchilar yavoy terib, ba'zida ot, tuya minib kelishgan. Yeri kasalliklari, bog'imlar va tayanch-harakat a'zolari kasalliklariga chalingan kishilar ko'lining shifobaxsh suvida cho'milib, qum vannasi qabul qilishadi.

Arxeologik, tibbiy va ekoturizmni

rivojlantirish uchun juda qulay sharoit hamda imkoniyatlar bo'lishiga qaramasdan, ushbu tarixiy maskan yillar mobaynida e'tibordan chetda qolib keldi, tashlandiq ahvolda tushdi...

Keyingi yillarda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini yuksaltirish borasida boshlangan xayrli tashabbuslar tufayli Qal'ajiqda ham qator istiqbolli loyihalar amalga oshirildi. Endilikda hudud qiyofasi tubdan o'zgarib, qal'a atrofidagi tashlandiq maydon va asriy qumliklar o'rnida ertakmonand shaharcha paydo bo'ldi.

– Ushbu tarixiy qal'aning nomi vohadan tashqarida ham ancha mashhur bo'lib, bu yerda tibbiy, gastronomik va ekoturizmni rivojlantirish uchun juda katta

imkoniyatlar mavjud, – deydi "Qal'ajiqqal'a oazis ekoturizmi" fermer xo'jaligi rahbari Dilorom Vafoyeva. – Shu bois 2019-yilda Qal'ajiqda sayyohlik markazini barpo etishga kirishdik. Loyihaning 1-bosqichida 2 ta restoran, bitta 20 o'rinni mehmonxona, 10 ta hunarmandchilik savdo rastasi, 14 ta savdo shoxobchasi, 30 gektar maydonda sun'iy baliq havzalari, qayiqda suzish, baliq ovlash xizmatlari, 40 ta o'tov hamda 500 o'rinni yozgi dam olish joylari (playa) tashkil qildik. Bu ishlarni amalga oshirish uchun 25 mld. so'm sarflandi, 250 ta yangi ish o'rni ochildi. Loyihaning 2-bosqichini amalga oshirish muddati 2025-yilga rejalashtirilgan bo'lib, ayni kunda sanatoriya, 400 o'rinni amfiteatr, 150 o'rinni mehmonxona, 2 ta yopiq suv havzasi qurilishi davom etmoqda.

Qal'ajiqda sayyohlik yo'nalishidagi yana bir yirik loyiha "Humoyun turistik maskani" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshirilmoqda.

– Turkiya, Ozarbayjon va boshqa xorijiy davlatlarda xizmat safarlarida bo'lib, turizm

infrastrukturasi barpo etish borasidagi ilg'or tajribalarni o'rgananimiz bugun qo'l kelmoqda, – deydi tadbirkor Gulshan Otajonova. – Shu asosda Qal'ajiqqa kelayotgan xorijiy va mahalliy sayyohlarga xizmat ko'rsatish borasida biznes-reja ishlab chiqildi. Xivadagi Chodra hovli me'moriy obidasi tarhi asosida balandligi 16 metr bo'lgan, 4 qavatli bino barpo etdik. Unda muzey, mehmonxona va eng tepasida tevarak-atrofni tomosha qilish uchun ochiq ayvon mavjud. Ko'l atrofiga sayyohlar dam olishi uchun zamonaviy sovitsh va isitish tizimlarga ega 20 tadan ortiq o'tov tikildi. Bundan tashqari, barcha qulaylikka ega 20 o'rinni mehmonxona, avtomobillar turarjoyi va sun'iy ko'l sayohatchilar xizmatida.

Shuningdek, dam olish maskanida amalga oshirilayotgan boshqa loyihalarda sayyohlarni qum barxanlari bo'yab tuyalarda, otlarda sayr qildirish, zamonaviy qayiqlarda suv havzalari bo'yab sayohatlar o'r'in olgan. Gastronomik turizm bilan bog'liq yangiliklar ham uzoq-yaqindan



tashrif buyurgan mehmonlarni befarq qoldirmaydi.

Bugun Qal'ajiqda turli mintaqalardan tashrif buyurayotgan sayohatchilarni ko'plab uchratasiz.

– Dengiz sohillaridagi imkoniyatlari bilan turistlarni jalb etadigan mamlakatlarga qish faslida sayohat qilib bo'lmaydi, – deydi turkiyalik sayyoh Xava Ordu. – O'zbekistonda esa yilning to'rt faslida ham tomosha qiladigan va dam oladigan qo'zal maskanlar, betakror tarixiy yodgorliklar bor. Men Qal'ajiqda birinchi marta bo'lishim, bu ertaknamo shaharcha menga juda yoqdi. Ayniqsa, balandlikdan turib bepoyon sahra kengliklarini kuzatishi insonga o'zgacha kayfiyat bag'ishlaydi.

Bugungi kunda Qal'ajiq nafaqat

turizm maskani, balki o'ziga xos kino shaharchasiga aylanmoqda. Qal'aga yondosh hududda barpo etilgan "kino shaharcha"da ilk bor shoir, faylasuf, kuragi yerga tegmagan polvon Pahlavon Mahmud hayoti va ijodiga bag'ishlab "Xiva langari" badiiy filmi suratga olindi. Umid qilamizki, ushbu maskanda yana ko'plab kinoasarlari yaratiladi va ko'h'na Qal'ajiqning turizm markazlaridan biri sifatida dovrug'ini dunyoga taratishga xizmat qiladi. Asrlar silsilasida yemirilib, yo'q bo'lib ketish xavfi tahdid solib kelgan Qal'ajiq qal'asi atrofiga yana jo'shqin hayot qaynab, qal'aning ikkinchi umri boshlanmoqda, go'yo.

Odilbek ODOMBOYEV
("Xalq so'zi").

Rossiyaning Yekaterinburg shahrida bo'lib o'tgan "INNOPROM – 2025" xalqaro sanoat ko'rgazmasida "Made in Uzbekistan" milliy stendi tashkil etildi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; ko'itbiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.00 Topshirildi – 23.45

1 2 3 4 5 6